

IJTIMOIY HIMoya TUSHUNCHASI VA UNING VAZIFALARI

Jalolova Maftunaxon Tolqinjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346272>

Annotatsiya. Ushbu maqola ijtimoiy himoya tushunchasining nazariy va amaliy asoslarini atroflichcha o'rganishga bag'ishlangan. Avvalo, ijtimoiy himoyaning kelib chiqishi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va funksiyalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy himoya tizimi tarixan ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy institut sifatida shakllanganligi, uning ilk ko'rinishlari, shakllanish bosqichlari va bugungi kunda jamiyatdagi roli batafsил yoritiladi.

Maqolada, shuningdek, ijtimoiy himoyaning asosiy yo'naliishlari — nafaqa, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy xizmatlar va moddiy yordam shakllari tahlil qilinadi hamda ularning samaradorligini oshirish uchun qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Muallif ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy himoyaning jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, tenglik va adolatni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi misolida ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish istiqbollari hamda uni takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Maqola ijtimoiy fanlar, ijtimoiy siyosat va boshqaruв sohasidagi tadqiqotchilar hamda amaliyotchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kirish:

Insoniyat tarixiy rivojlanishining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoyaga bo'lган ehtiyoji mavjud bo'lib kelgan. Turli tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqirozlar, sog'liqni saqlashdagi muammolar, ishsizlik va keksalik kabi holatlar odamlarni himoyasiz holatga solib qo'ygan. Ana shunday ehtiyojlar ijtimoiy himoya tizimlarining vujudga kelishiga va ularning astasekin rivojlanishiga asos bo'lган.

Ijtimoiy himoya deganda davlat va jamiyat tomonidan aholi, ayniqsa, ehtiyojmand qatlamlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ularning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bugungi kunda ijtimoiy himoya nafaqat yordam ko'rsatish, balki aholining sifatlari hayot kechirishi, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi tarixan turli bosqichlardan o'tgan: ibridoij jamiyatdagi o'zaro yordam shakllaridan boshlab, dastlabki xayriya tashkilotlari, diniy va jamoaviy yordam tizimlari orqali davlat tomonidan tashkil etilgan rasmiy tizimlargacha. XX asrga kelib,

ko‘plab davlatlarda ijtimoiy himoya mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllandi va davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida esa, ijtimoiy himoya tizimi yanada murakkablashdi, yangi mexanizmlar va strategiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Ijtimoiy himoya nafaqat zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, aholi salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash vositasi sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tushunchasi, uning jamiyatdagi ahamiyati, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy institut sifatida shakllanishi hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari batafsil tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

Ijtimoiy ish – jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamdigan zarur kasbiy faoliyat bo‘lib, u hozirda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga va aholining zaif guruhlari bilan bog’liq ijtimoiy ish sifati hamda qulayligini oshirishga qaratilgan. Odatda davlat yordamga muhtoj ahолига ko‘maklashishda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va boshqa institutlar orqali, ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo‘llab - quvvatlash orqali amalga oshiradi. Ijtimoiy ish — bu odamlar va ijtimoiy guruhlarga qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat.¹ U yolg‘iz nafaqaxo‘rlar va nogironlarga yordamni ham, shuningdek, qiyunalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, aroqxo‘rlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga ijtimoiy ishning asosiy yo‘nalishlar mavjud bo‘lib ular quyidagilarni tashkil etadi.

Har bir jamiyatda aholining muayyan qismi ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya tizimi ana shunday fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, ularning hayot sifatini yaxshilash va barqaror turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy himoya – bu faqat moddiy yordam emas, balki insonning yashash huquqini, ijtimoiy tenglikni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim tizimdir. Shu bois, ijtimoiy himoya tizimi zamonaviy jamiyatning ajralmas va zaruriy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya – keng ma’noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minkaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma’-noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minkaymagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar

¹ .Mahmudov R. “Ijtimoiy himoya: mohiyati, shakllari va mexanizmlari” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta‘minlash, aholi qat-lamlarining ta‘lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta‘minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari: erkin ijtimoiy - iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlani-shi; har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi; is-te‘molchilar himoyasi, iste‘molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste‘mol kafolatini ta‘minlash; aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish; ijtimoiy ta‘minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta‘minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Ijtimoiy himoya tushunchasi qadimgi davrlarga borib taqaladi. O‘sha davr jamiyatlarida yordamga muhtoj insonlarga yordam berish asosan ijtimoiy va diniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgan. Qabilaviy tuzum davrida keksa, bemor yoki yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish jamiyatning umumiy majburiyatiga aylangan.²

Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifalari:

1. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash – nogironlar, yolg‘iz keksalar, kam ta‘minlangan oilalar, bolalar, ishsizlar va boshqalar.
2. Yashash darajasini barqarorlashtirish – kam ta‘minlangan aholiga moddiy yordam ko‘rsatish orqali turmush sifatini oshirish.
3. Ijtimoiy tenglikni ta‘minlash – boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi.
4. Ishsizlikning oldini olish va bandlikni qo‘llab-quvvatlash – kasb-hunar o‘rgatish, qayta tayyorlash, ishga joylashtirishga ko‘maklashish.
5. Pensiya va nafaqa tizimini yuritish – mehnatga layoqatsiz kishilarni ta‘minlash.
6. Favqulodda holatlarda yordam ko‘rsatish – tabiiy ofatlar yoki boshqa og‘ir vaziyatlarda tezkor yordam ko‘rsatish.

Xulosa:

Ijtimoiy himoya — bu fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlash, ularning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladigan muhim tizimdir. U ijtimoiyadolat va barqarorlikni ta‘minlab, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni kamaytirish va teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy himoya tizimining asosiy vazifalari — pensiya, nafaqa, yordam puli, bandlikni ta‘minlash hamda ijtimoiy xizmatlar orqali aholining

² M.X.GANIEVA N.M.LATIPOVA A.N.ALIKARIEVA S.M.KALANOVA “IJTIMOIY ISH NAZARIYASI”

ijtimoiy ehtiyojlariga javob berishdir. Shu bois, ijtimoiy himoya har bir davlatning ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, barqaror taraqqiyot va inson kapitalining rivojiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi rasmiy veb-sayti:
<http://www.pfru.uz>
3. Qodirov A., Xolboyeva D. “Ijtimoiy himoya tizimi va uning rivojlanish istiqbollari” // Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–50.
4. Mahmudov R. “Ijtimoiy himoya: mohiyati, shakllari va mexanizmlari” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. M.X.GANIEVA N.M.LATIPOVA A.N.ALIKARIEVA S.M.KALANOVA “IJTIMOIY ISH NAZARIYASI”